

XORIY TILLARNI O'RGATISHDA YOQIMLI PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHNING BA'ZI USULLARI

Quvvatov Maxkam Usmonovich

*Jizzax viloyati pedagogik mahorat
markazi metodik xizmat ko'rsatish bo'limi
nemis va fransuz tili fani metodisti .*

“ Ta'lim insonni ijtimoiy va axloqiy jihatdan mukammallashtiradi.”

(Aristotel)

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Unda kreativ fikrlashning mohiyati, uning xorijiy tilni o'rganishdagi ahamiyati va asosiy yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konfutsiy , Psixologik muhit, Xorijiy tillarni o'qitish, dustona munosabat, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlar, Guruh bo'lib ishlash, mammo va his tuyg'ular, yutuqlarini e'tirof etish, interaktiv o'qitish usullari, innovatsion metodlar, muloqot uchun qulay sharoitlar, psixologik jihatlar.

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ БЛАГОПРИЯТНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Кувватов Махкам Усманович

*Методист по немецкому и
французскому языкам отдела
методического обслуживания*

"Образование совершенствует человека социально и нравственно."
(Аристотель)

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам развития у учащихся навыков креативного мышления в процессе обучения иностранным языкам. В ней раскрывается сущность креативного мышления, его значение в изучении иностранного языка и основные подходы к его формированию.

Ключевые слова: Конфуций, психологическая среда, обучение иностранным языкам, дружеские отношения, творческий подход, проблемные ситуации, работа в группе, эмоции и чувства, признание достижений, интерактивные методы обучения, инновационные методы, благоприятные условия для общения, психологические аспекты.

SOME METHODS OF CREATING A POSITIVE PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Quvvatov Makhkam Usmonovich

*Methodologist for German and
French languages, Methodological Support
Department, Jizzakh Regional Center for
Pedagogical Excellence*

Abstract: This article is devoted to the issues of developing students' creative thinking skills in the process of teaching foreign languages. It highlights the essence of creative thinking, its importance in language learning, and the main approaches to fostering it.

Keywords: Confucius, psychological environment, foreign language teaching, friendly relations, creative approach, problem situations, group work, emotions and feelings, recognition of achievements, interactive teaching methods, innovative methods, favorable communication conditions, psychological aspects.

Bugungi globallashuv davrida chet tilini o'rganish nafaqat bilim, balki zaruratga aylanmoqda. Tilni samarali o'rganishning eng muhim omillaridan biri — bu tabiiy til muhitini yaratishdir. Tabiiy til muhiti o'quvchining chet tilini sun'iy emas, balki hayotda qanday ishlatilsa, xuddi shunday shaklda o'zlashtirishiga imkon beradi. Bu yondashuv tilni dars mavzusi sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida qabul qilishga yordam beradi. Tabiiy til muhitining asosiy maqsadi chet tilidan real hayotiy vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini yaratishdir. Bunday sharoitda o'quvchi xuddi chet elda yashayotgandek tajriba orttiradi. O'qituvchi dars davomida imkon qadar chet tilida gapirishi, o'quvchilarni ham o'zaro shu tilda suhbatlashishga undashi lozim. Oddiy salomlashishdan tortib, mashg'ulotning barcha bosqichlarida chet tilidan foydalanish o'quvchilarni faol muloqotga jalb qiladi.

Sinfda yoqimli psixologik muhitni hosil qilish – o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'zaro hurmat, do'stona munosabat va ijobiy imotsiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yoqimli munosabatlarni hosil qilish uchun quyidagi samarali usullarni keltirish mumkin :

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchli munosabat yaratish-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatni yarata olish zarur. Buning uchun avvalo o'quvchilarga do'stona munosabatda bo'lish kerak. Shu bilan birga har bir oquvchining fikrini qadrlash hamda uni diqqat bilan tinglash zarur. Bundan tashqari o'quvchilarni tanqid qilish o'rniga ularga yo'l yo'riq ko'rsatish, to'g'ri maslahat berish, vaqti vaqti bilan ijobiy taraflarini ta'kidlab turish kerak.

O'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik o'rnatish-o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik o'rnatish kerak. Ushbu maqsadda dastlab

guruh - guruh bo'lib ishlash maqsadlarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga o'quvchilarni bir-biriga ijoboy fikr aytishni hamda bir-birini rag'batlantirishni o'rgatish zarur. Bundan tashqari o'quvchilarga Zo'rovonlik, masxara qilish va kamsitishning oldini olish kerak bo'ladi.

Emotsional salomatlikni qo'llab quvvatlash-o'quvchilar o'rtasida Emotional salomatlikni qo'llab quvvatlash zarur deb hisoblayman. Bunda albatta darslar davomida dam olish yoki gimnastik mashqlar tashkil etish zarur bo'ladi. Bundan tashqari sinfda o'quvchilarga erkin ifoda qila olish, mavjud muammo va his tuyg'ular bilan bo'lishish imkoniyatini yaratish kerak.

Ijobiy intizom va kichik qoidalar barpo etish -sinfda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijobiy intizom muhitini barpo etish hamda sinf uchun kichik qoidalar joriy etish mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi sinf qoidalarini o'quvchilar bilan birga tuzishi shart. Shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarda ularni intizomni buzganligi uchun jazolash emas, ularni tushunishga harakat qilish kerak.

Chet tilini o'rgatish texnologiyasi — bu chet tillarini samarali o'rgatishga qaratilgan usullar, vositalar, platformalar va texnologik yechimlar majmuasidir. Bugungi kunda bu soha an'anaviy dars metodlaridan tortib, zamonaviy raqamli vositalargacha bo'lgan keng doirani qamrab oladi.

Tilni tabiiy muhitda o'rgatishda rol o'yinlar muhim o'rin tutadi. Masalan, restoranda buyurtma berish, aeroportda ro'yxatdan o'tish yoki do'konda xarid qilish kabi vaziyatlarni taqlid qilish o'quvchilarni hayotiy tajribaga tayyorlaydi. Bunday mashg'ulotlarda xatolar qo'rqinchli bo'lmay qoladi, aksincha o'quvchilarning ishonchi ortadi. Shuningdek, filmlar, seriallar, qo'shiqlar va podkastlar kabi multimedia vositalaridan foydalanish tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi. Zamonaviy davrda esa sun'iy intellekt, jumladan ChatGPT kabi chatbotlar bilan muloqot qilish tilni yanada faol qo'llash imkonini beradi. O'qituvchi dars jarayonida turli metodlardan foydalansa samaradorlik

oshadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish, kichik sahnalar ijro etish, o'quvchilarga ijobiy fikr-mulohaza berish va turli o'yinlardan foydalanish darsni jonli qiladi. Masalan, "Siz notanish mamlakat aeroportidasiz va yuqingiz yo'qolib qoldi" kabi topshiriqlar o'quvchilardan ijodkorlikni talab etadi va ularni faol gapirishga undaydi.

Chet tilini o'rgatishda psixologik muhit ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi o'z kayfiyatini darsxonaga olib kirmasligi, o'quvchilarni tabassum bilan kutib olishi va ijobiy kayfiyat yaratishi kerak. Ideal dars talabchanlik, ishchan muhit va qulay muloqot uyg'unligidan iborat bo'lishi lozim. Bunda o'qituvchining aktyorlik mahorati, ovoz ohangi va hazil tuyg'usi ham muhim o'rin tutadi. Hazil o'quvchilarda ijobiy emotsiyalar uyg'otadi, darsni qiziqarli qiladi va samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini samarali o'rgatish uchun metodik yondashuv va psixologik muhit uyg'un bo'lishi zarur. Yoqimli va tabiiy muhit o'quvchilarni erkinlashtiradi, ularning o'ziga ishonchini oshiradi, xatodan qo'rqqmasdan so'zlashishga undaydi va tilni haqiqiy aloqa vositasi sifatida o'zlashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli darsning kaliti metodik mahorat bilan bir qatorda ijobiy psixologik muhit yaratishda namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada psixologik jihatni, shuningdek, ma'lum bir jamoaning o'zaro munosabatlari, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, dars o'tilayotgan atmosfera sifatida ko'rib chiqish taklif qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Brown, H. Douglas.** Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2014. Til o'rgatish jarayonida ijodiy yondashuv va interaktiv metodlarning nazariy asoslari haqida.

2. **Richards, Jack C., & Rodgers, Theodore S.** Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2020. Xorijiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalar.

3. **Harmer, Jeremy.** The Practice of English Language Teaching. Pearson Education, 2015. Til o'rgatish jarayonida texnologiyalardan foydalanish va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari. Rol o'yinlari va simulyatsiyalar yordamida kreativlikni rivojlantirish.

4. **Oxford, Rebecca L.** Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House, 1990.

5. **Jo'raboyev B.B** Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondoshuv- 2020

6. **Sanaqulov Z.A** Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar - 2021